



STRENGTHENING THE ROLE OF PROSECUTOR'S OFFICES IN ENSURING COMPLIANCE WITH THE LAW IN MILITARY STRUCTURES

Pulatov Shokhrux Bakhram ugli ¹

¹ Tashkent State University of Law, Master's degree in Public Administration Law

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4738384>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 30th April 2021

KEY WORDS

prevention, repression, fight against crime, fight against corruption, interagency commission, rule of law.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of further improving the activities of the prosecutor's office in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, ministries, state committees and military structures to monitor compliance with the law.

HARBIY TUZILMALARDA QONUNLARGA RIOYA QILINISHINI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING ROLINI KUCHAYTIRISH

Po'latov Shoxrux Baxram o'g'li ¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistratura bosqichi talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021
Ma'qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

profilaktika, repressiya, jinoyatchilikka qarshi kurash, korrupsiyaga qarshi kurash, idoralararo komissiya, qonun ustuvorligi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola prokuratura organlarining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-yanvardagi Prokuratura xodimlari va faxriylari bilan uchrashuvidagi "Xalqimiz bizdan qonun va adolat ustuvorligini amalda ta'minlashni kutmoqda" nomli ma'ruzasida "prokuratura ilgari gidek faqat jazolaydigan, repressiya organi bo'lib qolmasligi, aksincha, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qog'ozda

emas, amalda himoya qiladigan tizimga aylanishi zarur"[1] deb bejizga ta'kidlamagan edi. Chunki prokuratura qonuniylikni ta'minlaydigan, inson huquq va erkinliklarini qonun doirasida himoya qiladigan asosiy organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish, davlat hayotining har bir jabhasida qonuniylikni himoya qilish



hamda qonun ustuvorligini ro'yobga chiqarish, inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash prokuratura organlari zimmasidagi vazifa sanaladi. Oxirgi yillarda respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni ancha yaxshi holatga keltirishga erishildi. Bunday ijobiy natijalarga erishishga prokuratura organlari salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar va ularning jinoyatchilikning va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi roli va ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. O'z navbatida prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish, prokuratura organlarining asosiy vazifalari hamda prinsiplari, prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qoidalar "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda batafsil yoritilgan. Mazkur qonun prokuratura organlari tizimi faoliyatining asosiy negizini, ish yuritish tartibi va qonun-qoidalarini o'zida jamlagan va shunisi bilan e'tiborga molik hisoblanadi. Davlat qo'mitalari va idoralari, vazirliklar, Qurolli Kuchlar tizimida yoki ularning harbiy bo'linmalarida ham qonuniylik, ularga og'ishmasdan amal qilish borasida nazorat qilish funksiyasi ham ushbu qonunga muvofiq prokuratura organlariga yuklangan.

ASOSIY QISM

"Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilangan. Unga ko'ra:

"Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar,

muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish"[2].

Prokuratura organlari tizimidagi har bitta bo'linma, shu jumladan, viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan Harbiy prokuratura ham o'z faoliyatini ushbu belgilab



berilgan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yadi va olib boradi. 2017-yil 1-may kuni prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Prokuraturasi faoliyatiga bag'ishlangan 2017-yil 18-aprel imzolangan PF-5019-sonli "Ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida" nomli farmon matni e'lon qilindi. Ushbu farmonda O'zbekiston Prokuraturasi yangi islohotlar ijrosida muhim rol o'ynashi lozimligi va prokuratura organlarining ustuvor vazifasi – xalq manfaatlariga xizmat qilish deya ta'kidlangan[3] edi. Prokuraturaning kelgusidagi asosiy vazifasi xalq manfaatlariga xizmat qilish deb belgilanar ekan, demak, prokuratura organlarining butun kuch va imkoniyatlarini shu jabhaga safar qilish va ularning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada yuqori bosqichga olib chiqish lozim bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

2017-yil 14-martdagi prezidentning PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq prokuraturaning bu sohada qilishi lozim bo'lgan ishlari belgilab berilgan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi quyidagi komissiyalar bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilangan:

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi[4].

Qarorga muvofiq tuzilgan Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish komissiyasi tomonidan belgilab beriluvchi ko'rsatmalarning harbiy tuzilmalarda bajarilishini, komissiya tomonidan o'rnatilgan qoidalarga rioya qilinishini Harbiy prokuratura nazorat ostiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida asosan Harbiy prokuratura va uning hududiy harbiy prokuratura bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan Harbiy prokuratura va uning hududiy harbiy prokuraturalari mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, harbiy idoralarda, vazirliklar hamda idoralarning harbiylashtirilgan tarkibiy bo'linmalarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining to'raligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida 1999-yil 30-martdagi PF-2277-sonli prezident farmoniga asosan tashkil qilingan. Harbiy prokuratura O'zbekiston Respublikasining harbiy prokuraturasi to'g'risidagi nizomga ko'ra, «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara turib, o'z faoliyatini Qurolli Kuchlar, chegara va ichki qo'shinlarda, qorovul qo'shinlarida, shuningdek FVV bo'linmalarida qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratadi. U quyidagilarni muhofaza qiladi:

– harbiylar, harbiy quruvchilar hamda yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmat o'tashga majbur shaxslar, ularning oila a'zolari va Qurolli Kuchlarning ichki qo'shinlari va FVV bo'linmalari xizmatchilarining, shuningdek, boshqa fuqarolarning ham huquq va erkinliklarini;



– O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini, Qurolli Kuchlarning, chegara qo‘shinlari, ichki qo‘shinlarning hamda qorovul qo‘shinlarining, shuningdek, FVV bo‘linmalarining harbiy qobiliyat darajasi va harbiy tayyorgarligini, harbiy intizom va harbiy xizmatni olib borishning qonunda belgilangan tartibini;

– harbiy qismlar, Qurolli Kuchlarning muassasalari, harbiy o‘quv yurtlari, korxonalar hamda tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini.

Harbiy prokuraturaning o‘ziga yuklatilgan muhofaza qilish va yuqoridagi muhofaza obyektlarida qonuniylikni ta‘minlash bo‘yicha vazifalardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi deb hisoblaymiz:

a) barcha harbiy boshqaruv organlari, harbiy qismlar, harbiy o‘quv yurtlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, ichki qo‘shinlar va FVV bo‘linmalarining komandirlari, boshliqlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan, harbiy chaqiruvdagilar, shuningdek, Qurolli Kuchlar, ichki qo‘shinlar va FVV bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish paytida qonunlarga, nizomlarga va boshqa harbiy qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

b) Qurolli Kuchlardagi surishtiruv, harbiy prokuratura tergovchilari organlari, shuningdek, DXX surishtiruv organlari, tergovchilari tomonidan harbiy sudlarga taalluqli jinoiy ishlarni tergov qilish paytida qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish;

v) sudlarda ishlarni ko‘rib chiqish paytida ishtirok etish va sud ishlari

to‘g‘risidagi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish;

g) gauptvaxtalar, shuningdek, hibsga olinganlarni va qamalgan harbiy quruvchilarni saqlashning boshqa muassasalarida, intizomiy qismlarda hamda harbiy qismlarda harbiy sudlar belgilangan jazolarni o‘tashda qonunlar va harbiy nizomlarga amal qilinishini nazorat qilish.

XULOSA

Xulosa qilib aytamizki, Harbiy prokuratura O‘zbekiston Respublikasi prokuratura tizimining Qurolli Kuchlarda, boshqa harbiy tuzilmalar, harbiy korxonalar, harbiy o‘quv muassasalari, harbiylashtirilgan bo‘linmalarda prokuror nazoratini olib boruvchi ixtisoslashgan organi hisoblanadi. Harbiy prokuraturaning asosiy vazifalariga davlat xavfsizligi, xududiy daxlsizlik va qo‘shinlardagi harbiy tayyorgarlik bo‘yicha qonun ustuvorligini ta‘minlash, harbiylarning hamda ularning oilalari huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, Qurolli Kuchlarning qonuniy manfaatlarini kasbiy huquqbuzarliklardan himoya etish va bunday huquqbuzarliklarning oldini olish kiradi. Harbiy prokuratura organlari qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning, harbiy xizmatchilarning va yuridik shaxslarning ariza hamda shikoyatlarini ko‘rib chiqadilar, ularning buzilgan qonuniy huquq va manfaatlarini tiklash yuzasidan tegishli choralarni ko‘radilar. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL. <https://lex.uz/ru/docs/-106197>
2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL. <https://lex.uz/docs/-3141186#-3141347>
3. “Ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida” – PF-5019-son farmoni URL. <https://lex.uz/ru/docs/-3177796>
4. Sh. Mirziyoyev – “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”. Toshkent – “O'zbekiston”-2017